

## SO‘FIY SHOIR XO‘JANAZAR HUVAYDO IJODINING O‘RGANILISHIGA BIR NAZAR

**Murodova Barnoxon Kamalxodja qizi**

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Stajyor-tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo sunniy tasavvufi buyuk namoyondasi, yassaviylik, naqshbandiylik tariqatlarining munosib davomchisi, xalqimiz ma‘naviy hayotida o‘chmas iz qoldirgan so‘fiy shoir Xo‘janazar Huvaydo ijodining olimlar tomonidan o‘rganilishi bayon etilgan.*

**Kalit So‘zlar:** *Tasavvuf, avliyo, so‘fiy, xo‘ja , xoja, devon*

### **KIRISH**

Xo‘janazar G‘oyibnazar o‘g‘li Huvaydo XVII-XVIII asr Markaziy Osiyo sunniy tasavvufi buyuk namoyondasi, xalqimiz ma‘naviy hayotida o‘chmas iz qoldirgan so‘fiy shoir hisoblanadi.

Huvaydo ijodini tadqiq etish rus va nemis sharqshunosligida XX asr boshlarida yangi bosqichga ko‘tarildi. A. N. Samoylovich, P.A. Falev, M.F. Gavrilov, N. P. Ostroumov, nemis sharqshunosi M. Hartman ilmiy maqola va risolalarida turkiy adabiyotning XX asr boshlaridagi rivojlanish xususiyatlari, jumladan, o‘rtaosiyolik so‘fiy va shoir Xo‘janazar Huvaydo haqida fikr yuritgan. [1.]

Rus olimlaridan N. F. Gavrilov Toshkentda rus tilida chop etilgan “O‘rtaosiyolik shoir va so‘fiy Huvaydo” risolasida uning tarjimai holi, hayoti haqida mulohazalarini bildiradi. [2.]

XIX asr II yarmida Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1810-1822) homiyligida din va dunyoviy ilm o‘rganilishiga alohida e‘tibor berila boshlandi. Hatto Amir Umarxon xonlik qorilariga Xo‘janazar Huvaydoning ijodiy merosini o‘rganishni topshirgan.

Vatanimiz tasavvufshunos olimlaridan N. Komilov, I. Sulton. O. Usmon, B. Valixo‘jayev, Yo. Is‘hoqov tadqiqotlarida naqshbandiya tariqati vakillari haqida ma‘lumotlar berilgan. [3.]

1959-yilga kelib M. Afzalov “Huvaydo va Mashrab ijodini atroflicha o‘rganaylik” sarlavhali maqolasida “Shu choqqacha Huvaydo Chimyoniyning ijodi chuqur va atroflicha o‘rganilmaganini ma‘lum qildi”. [4.]

Vohid Zohidov esa Huvaydo ijodini ilmiy asosda o‘rganishni boshlab bergan tadqiqotchilardan.

Abdusalom Xudoyberdiyev “Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо” 1990-yil nomzodlik dissertatsiyasida ham shoirning hayot yo‘li, ijodi haqida, lirikasining mavzu ko‘lami, yutuqlari haqida atroflicha fikr bildiradi. ” [5.]

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tarix fanlari doktori Ikromiddin Ostonaqulovning “Avliyolar sultoni. Turonlik valiyalar” asarida yozilishicha, “Kunlardan bir kuni Ofoqxo‘ja (rahmatullohi alayh) o‘z muridiga “Sen farzand ko‘rsang otini Xo‘janazar qo‘y, mening nazaram andadur”, -deb xushxabar beradi. Oradan 5-6 yil o‘tib so‘fiy G‘oyibnazar o‘g‘illik bo‘lib Xo‘janazar ismini qo‘yadi. ”[6.]

Adabiyotshunos Nusratullo Jumaxo‘ja Huvaydoning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan maqolasida shunday yozadi: ”Huvaydoning otasi G‘oyibnazar Ernazar o‘g‘li 11041 hijriy yillarda bir guruh marg‘ilonlik qarindoshlari bilan Chimyonga ko‘chib kelgan. Xo‘janazar Huvaydo shu oilada, shu maskanda tavallud topgan”. [7.]

“Xo‘janazar Huvaydo so‘fiy G‘oyibnazar eshon xonadonida voyaga yetadi. Avvalo otasidan islom dini asoslarini, fiqh ilmini, hol ilmini chuqur o‘rganadi. Bu haqda Ismatilla Abdullayev va Qodirqul Ro‘zmatzoda Huvaydo devonining nashrga tayyorlagan so‘zboshisida o‘z mulohazalarini bildiradi. [8.]

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, shoirning tavalludi, oilasi haqida ma‘lumotlar yetarli darajada. Shoirning yoshlikdan odox-axloqda takomilga yetgani, bir qancha ilmlar: aqoid, fiqh, hol ilmini o‘rganganini o‘z tilidan bayon etadilar:

Ham o‘qub ilmu adab, bo‘ldum Aqoid xoni ishq,  
Mushkilatu ilmi fiqhdin so‘rsalar berdim javob.

1901 yilda O‘z FA SHI Qo‘lyozmalar fondi 12004-inventar raqamda saqlanayotgan toshbosma asosida Istanbulda “Huvaydoyi Chimyoniy” nomi bilan devon nashr etiladi. Kitobfurush Siddiq Xojandi undan bir nusxani nemis sharqshunosi M. Hartmanga beradi va shu orqali asar nemis muxlislari qo‘liga ham yetib boradi.

Shoir ijodi, albatta, shaxsiyati bilan birga o‘rganilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shoirga nazari tushgan pir ismi Ofoqxo‘ja, ba‘zi o‘rinlarda Ofoqxo‘ja tarzida yozilishi Xojanazarmi yoki Xo‘janazar deb yoziladi degan g‘alizliklarni keltirib chiqargan. Mustaqilikkacha “xoja” va “xo‘ja” so‘zlari bir ma‘noda qo‘llangan bo‘lsa-da, bugungi kunda ilmiylik nuqtayi nazardan farqlash lozim.

Xoja- fors-tojikcha “ega, boshliq, xo‘jayin” ma‘nolarini bildiradi. Tassavvufiy istilohda esa tariqat boshlig‘i, rahnamosi ma‘nosida qo‘llaniladi.

Aldulxoliq G‘ijduvoni asos solgan xojagon tariqati so‘fiylari “xoja”, “xojam” deb e‘zozlangan.

Xo‘ja- O‘rta Osiyoda birinchi bo‘lib islomni qabul qilgan o‘zlarini Muhammad payg‘ambar va chohoryorlarning avlodi deb hisoblaydigan etnik guruh. Xo‘jalarning ikkinchi nomi sayyidlardir.

Endi Huvaydo ismi bilan yonma yon keluvchi “so‘fiy” so‘ziga ham to‘xtalib o‘tsam.

Islom dini qabul qilingandan keyin keng quloqda yoyila boshladi. Tasavvuf haqida insonlar ongi va dunyoqarashi rivojlanib, bu yoʻlda oʻzidan kelib chiqqan holda eʼtiqod qiladigan odamlar guruhi shakllandi.

1. Moʻminlar- mohiyatan musulmonlardan yuqori maqomda turuvchi, musulmonlik shartlarini toʻla ado etuvchi dindorlar. Ular ogʻir jismoniy mehnat bilan nochor hayot kechiradilar. Bunaqa hayot tarzi ularda boriga koʻnikish, sabr-toʻqatli boʻlish, Hudodan madad soʻrash va unga tavakkul qilish kabi tafakkur tarzini shakllantirgan.

2. Obidlar- moʻminlar orasida nisbatan toʻqroq yashaydigan, savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan shugʻullanadigan, shu sababli savod chiqarish, toat-ibodat bilan mashgʻul boʻlib, farz amallardan tashqari qoʻshimcha nafl namozlari va qoʻshimcha roʻza tutish bilan oʻzlarini gunohlardan pok saqlashga intiladigan, jannatdan umidvor kishilar

3. Zohidlar- ilmi, maʼrifatli oʻziga toʻq taqvodorlar. Dunyo lazatlari, moddiy boylik, zeb-ziynat, hashamdan nafratlanadigan, Hudodan magʻfirat soʻrab yigʻlaydigan taqvodorlar.

4. Siddiqlar- rostgoʻy, samimiy, riyo va munofiqlikka qarshi kurashish uchun doimo oʻzini tahlil va nazorat qiladigan halol va adolatli dindorlar.

5. Oriflar- haqiqat oshiqlari, yaʼni individual maʼnaviy-ruhiy mashqlar (zikr, xilvat, samo) yordamida ilohiy maʼrifat hosil qilish uchun intiladigan taqvodorlar. Ularni keyinchalik soʻfiy deb atadilar.

6. Soʻfiy-maʼrifat bosqichida kamolga erishgan, muridlar yetishtirish huquqiga ega boʻlgan komil insonlar edilar. Buyuk soʻfiy-avliyolar oʻzlariga ayon boʻlgan ilohiy ilm va maʼrifatni zamondoshlaridan sir saqlashga, Olloh rizoligi yoʻlida xayrli va savobli amallarni elga koʻz-koʻz qilmaslikka kamtarona va faqir hayot kechirishga intilganlar.

Tasavvufiy lugʻatlarda soʻfiyga quyidagicha taʼrif beriladi: a) koʻngli sof kishi; b) malik va mamluk boʻlmagan (mulk egasi boʻlmagan); c) nafsda foniy, Haq ila boqiy; sukut etsa ham suhbatdoshining siridan voqif; nafsoniy oʻlgan, Haq bilan tirilgan; d) ibn vaqt, yaʼni vaqtning oʻgʻli; e) Soʻfiy- Haqqa erishgan vusul egasidir.

Soʻfiy nomini ilk bor kufalik zohidlar Abu Hoshim (767 y.) va shia Jobir ibn Xayyom(862 y.) olganlar.

Islom davrining yirik ilohiyotchisi Hasan al-Bahriy (642-728) dastlabki soʻfiy hisoblanadi.

7. Avliyo- “Olloh yoʻli”dagi eng yuqori choʻqqiga koʻtarilib, fano va baqo bosqichida ilohiy sirlardan ogoh boʻlganlar va Haqqa yetishganlar.

### **XULOSA**

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Xoʻjanazar Huvaydo ijodiy faoliyatiga Ahmad Yassaviy, Soʻfi Olloyor, Mashrab singari

namoyondalarning badiiy-estetik g'oyalari, san'at va mahoratlari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Shoirning biografiyasi bilan bog'liq jihatlar ko'proq o'rganilgan.

Huvaydo she'rlari orasida bevosita Yassaviy ta'sirida yozilgan yoki ma'no va ohang jihatidan ularga o'xshash she'rlar ham tez-tez uchraydi. Bunday she'rlar g'oyaviy-badiiy ahamiyatidan tashqari, o'ziga xos tarixiy qimmatga ham ega desak xato bo'lmaydi. Uning ehtirosiga to'la she'rlari uning oshiqliqi sabab, lekin bu ishq tasavvufiy, irfoniy ruhda. Huvaydo devonidagi g'azallar Qur'on oyatlari, hadis hikmatlari, fiqh, ilohiyot, tasavvufga doir arabcha, forscha tushunchalar bilan bezangan. Shuning uchun uning ijodini o'rganish bugungi kun kitobxonidan shar'iy ilmlar, tasavvufiy istilohlarni tahlil qila olish ko'nikmasiga ega bo'lishni talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. M. Hartman. "Der caghotaische Diwan Huwedas"--Mittheilungen des semenars fu Orientalische sprachen zu Berlin, Jahrgang V. Berlin. 1902.
2. M. F. Gavrilov. Sredneaziatskiy poet i sufiy Xuvaydo . T.:1927.
3. N. Komilov. Tasavvuf. -T.:Movorounnahr,2009.
4. M. Afzalov. Huvaydo va Mashrab ijodini atroflicha o'rganaylik. – "O'zbekiston madaniyati" gaz. 20-iyun,1959 y. № 49
5. А. Худойбердиев. Жизнь и творчество Ходжаназара Хувайдо. фил. дис.-1990.
6. Avliyolar sultoni. Turonlik valiylar. To'plab nashrga tay. I. Ostonaqulov.- Toshkent, Yangi asr avlodi, 2004.
7. N. Jumaxo'ja. Huvaydo.-"Ma'rifat" gaz.1994.29 iyun.
8. Xo'janazar Huvaydo. Devon. Tabdil qilib nashrga tayyorlovchi va so'zboshi muallifi I. Abdullayev, Q. Ro'zmatzoda-T.:Yangi asr avlodi.,2005.